



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Bekmuradova Jasmina Zayniddin qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Xolmurodova M.A

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15175912>

Annotatsiya: Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni o'rganish inson hayotining ajralmas qismiga aylanmoqda. Xususan, ingliz tili, nemis tili, fransuz tili va boshqa tillarni o'qitish jarayoni har bir davlatda ta'lim siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Biroq, xorijiy tillarni o'qitishda turli muammolar mavjud bo'lib, ularni hal qilish zamonaviy pedagogika oldida dolzarb masala sifatida turibdi. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitishdagi asosiy muammolar va ularning samarali yechimlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xorijiy tillar, muammo, yechim, motivatsiya, nutq, kommunikativ yondashuv, til muhiti yaratish.

Annotation: In today's era of globalization, learning foreign languages has become an integral part of human life. In particular, teaching languages such as English, German, French, and others is considered one of the key educational policy directions in every country. However, there are various challenges in the process of teaching foreign languages, and addressing these challenges stands as an urgent issue before modern pedagogy. This article analyzes the main problems in foreign language teaching and explores effective solutions to overcome them.

Keywords: Foreign languages, problem, solution, motivation, speech, communicative approach, creating a language environment.

Аннотация: В современную глобализации изучение иностранных языков стало неотъемлемой частью жизни человека. В частности, обучение таким языкам, как английский, немецкий, французский и другим, считается одним из ключевых направлений образовательной политики в каждой стране. Однако в процессе преподавания иностранных языков существуют различные проблемы, и их решение является актуальной задачей современной педагогики. В данной статье анализируются основные проблемы в обучении иностранным языкам и рассматриваются эффективные пути их преодоления.

Ключевые слова: Иностранные языки, проблема, решение, мотивация, речь, коммуникативный подход, создание языковой среды.

Bugungi kunda zamonaviy dunyoda odmlarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi kundan kunga juda tez o'sib bormoqda. Chet tilini bilish orqali odamlar ko'plab davlatlarga sayohat qilib va ularning tarixi, urf-odatlar va madaniyatini o'rganib katta tajribalar orttirishmoqda. Ilmiy-texnika taraqqiyoti va amalga oshirilayotgan qator islohotlar tufayli chet tillarini o'rganishga bo'lgan



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

qiziqish jamiyatdagi o'rni va obro'sini yanada mustahkamlab bormoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, odatiy darajada rivojlangan va rivojlanib borayotgan mamlakatda har bitta inson o'zi yashab turgan muhitdagi har qanday tilni o'rganishga qodir va boshqalar bilan ushbu tillarda erkin muloqot qila oladi ya'ni patologik nuqsoni bo'lmagan bola ikki, uch yoki undan ortiq tillarni o'rgana oladi. Til o'rgatish juda ko'p turli xil xususiyatlarga ega. O'qituvchi nafaqat o'quvchilarga til ko'nikmalarini o'rgatishi balki ularni amalda tatbiq qila olishiga e'tibor qaratishi kerak. Bundan tashqari, o'qituvchilar o'quvchilar nimani o'rganishi, bunday ta'lim ularga nima uchun zarur ekanligi va darslar kelajakda ular uchun qanday foyda keltirishini anglab yetishi kerak. Demak, til o'rgatish o'qituvchilardan talabalarni ham akademik ham shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishga o'rgatishlarini talab qiladi.

Birinchidan, o'quvchilarning motivatsiyasining yetishmovchiligi katta muammodir! Ko'plab o'quvchilar xorijiy tilni o'rganishga yetarlicha qiziqish bildirmaydi yoki tezda qiziqishini yo'qotadi. Bu, asosan, darslarning zerikarli shaklda o'tilishi, o'quvchilarning til o'rganish maqsadlarini aniq bilmasligi yoki o'z natijalariga ishonmasligi bilan bog'liq. Bu vaziyatda quyidagi yechimlarni qo'llash mumkin. Darslarni interaktiv va qiziqarli qilish: O'yinlar, rostdan hayotiy vaziyatlar bilan bog'liq topshiriqlar va audio-vizual materiallardan foydalanish motivatsiyani oshiradi. Individuallashtirilgan yondashuv: Har bir o'quvchining ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olgan holda dars rejalarini tuzish samarali bo'ladi. Amaliy qo'llash imkoniyatlarini yaratish: O'quvchilar chet tilida muloqot qilish orqali o'z bilimlarini amalda sinab ko'rishlari kerak (masalan, til almashish dasturlari, onlayn suhbatlar, xorijiy mehmonlar bilan uchrashuvlar).

Ikkinchidan, nutq amaliyotining yetishmovchiligi. Bunga muammo sifatida shularni misol qilib olishimiz mumkin: Ko'plab ta'lim muassasalarida xorijiy til o'qitish ko'proq grammatik qoidalarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarga jonli muloqot qilish imkoniyati yetarli darajada taqdim etilmaydi. Bu esa ularning eshitish va gapirish ko'nikmalarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bu muammoning ham o'ziga yarasha bir nechta yechimlari mavjud:

1. Kommunikativ yondashuvni kuchaytirish: Dars jarayonida ko'proq suhbat mashqlari, rolli o'yinlar, jamoaviy muhokamalar o'tkazish muhim;
2. Chet ellik o'qituvchilar bilan suhbatlar tashkil qilish: Xorijiy til egalari bilan jonli suhbatlar talabalarni o'z bilimlarini amalda qo'llashga undaydi;



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

3. Til muhiti yaratish: O'quvchilarni xorijiy tilda yozilgan kitoblar, filmlar va podkastlar bilan tanishtirish, ularni o'z fikrlarini shu tilda ifodalashga rag'batlantirish kerak.

Keyingi muammo bu o'quv materiallarining sifati va yetishmovchiligi. Ko'plab ta'lim muassasalarida foydalaniladigan o'quv materiallari eskirgan bo'lib, zamonaviy muloqot tili va madaniy o'zgarishlarni o'z ichiga olmaydi. Bu esa o'quvchilarning real hayotda tilni qo'llash qobiliyatiga ta'sir qiladi. Bu yerda muammoga hos yechimlar ham bor. Yangilangan va zamonaviy darsliklardan foydalanish: O'quv dasturlariga real hayotga yaqin bo'lgan nutq namunalarini kiritish lozim. Yoki onlayn ta'lim resurslarini joriy etish: Interaktiv veb-saytlar, mobil ilovalar, virtual darsliklar kabi zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish o'qitish sifatini oshiradi. Va o'zbek tilida mavjud resurslarni xorijiy tillarga tarjima qilish va aksincha: O'quvchilarga xorijiy tilni tushunishda qo'shimcha qulaylik yaratish mumkin. O'qituvchilarning malakasi ham katta muammo bo'lishi mumkin, va bunga nisbatan ham bir oz yechimlar bor. Ayrim xorijiy til o'qituvchilarining zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bilmasligi yoki o'z faniga yetarlicha ega emasligi ta'lim jarayonining sifatiga salbiy ta'sir qiladi.

Masalan: O'qituvchilar uchun muntazam treninglar tashkil qilish: Zamonaviy ta'lim metodikalarini o'rganish va ulardan foydalanish imkoniyatini berish kerak. Innovatsion yondashuvlarni o'rganish va tajriba almashish: Boshqa davlatlardagi ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro seminar va konferensiyalarda qatnashish foydali bo'ladi. Motivatsion dasturlarni ishlab chiqish: O'qituvchilarning mehnati rag'batlantirilishi kerak, bu esa ularni yanada samarali ishlashga undaydi. Ohirgi muammo bu til o'rganishga yetarli vaqt ajratilmasligi. Ko'pgina ta'lim muassasalarida xorijiy til darslari haftasiga juda kam soat ajratilgan bo'lib, bu o'quvchilarning yetarlicha amaliy mashq qilishiga to'sqinlik qiladi.

Bunga yechim sifatida bir necha misollar bor. Qo'shimcha til klublari va to'garaklar tashkil qilish: Bunda o'quvchilar darslardan tashqari ham mashq qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mustaqil o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish: Audio kitoblar, ilovalar, videodarslar orqali o'quvchilarga o'z vaqtida til o'rganish imkoniyatlarini berish kerak. Intensiv kurslar va yozgi maktablar tashkil qilish: Bu o'quvchilarning til ko'nikmalarini tezroq rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa: Xorijiy tillarni samarali o'qitish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biridir. Yuqorida sanab o'tilgan muammolarni hal qilish uchun innovatsion va zamonaviy yondashuvlarni qo'llash zarur. Malakali o'qituvchilar, texnik vositalar bilan boyitilgan dars jarayoni va interaktiv metodikalar xorijiy til



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

o'qitish sifatini sezilarli darajada oshiradi. Shunday ekan, bu sohadagi muammolarga jiddiy e'tibor qaratish va ularni tizimli hal qilish har bir ta'lim muassasasi oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Xorijiy tillarni o'qitish jarayonida duch kelinadigan muammolar turlicha bo'lsa-da, ularni hal qilish mumkin. O'quvchilarni motivatsiyalash, amaliy nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, zamonaviy o'quv materiallaridan foydalanish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va darslarga yetarli vaqt ajratish bu jarayonning samaradorligini oshiradi. Yangi metodlarni joriy etish va ta'limni rivojlantirish bo'yicha doimiy izlanishlar olib borish orqali xorijiy tillarni o'qitishning sifatini oshirish mumkin. Shunday ekan, chet tillarini o'rganish va o'qitish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ekanligini unutmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://akadmvd.uz/oz/news/talimda-tillarni-oqitish-muammo-va-vechimler>
2. <https://kun.uz/news>
3. FLEDU.UZ